***Izoh:*** Triamsinolon asetonidni qo'llashga qarshi ko'rsatmalar – 2 yoshgacha bo'lgan yosh, homiladorlikning I uch oyligi, zamburug'li kasalliklar, virusli infeksiyalar. Okklyuzion bog'lam ostida foydalanilmaydi. Yuzning terisiga, terining burmalariga uzoq vaqt qo'llanilmaydi. Mahalliy infeksiyon asoratlarning oldini olish maqsadida mikroblarga qarshi vositalar bilan birgalikda foydalanish tavsiya etiladi. Yoshidan qat'iy nazar, bolalarda uzoq muddatga (5 kundan ortiq bo'lmagan) qo'llashdan ehtiyot bo'lish kerak.

➤ Hidrokortizon asetat – 1% malham, kattalar va bolalarda krem uzluksiz davolash sxemasiga muvofiq kuniga ikki marta yupqa qatlam ko'rinishida 3 oydan, va uzlukli uslubda 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatda qo'llaniladi.

***Tavsiyalarning asoslanganlik darajasi S (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)***

***Izoh:*** Hidrokortizon asetatni tayinlashga qarshi ko'rsatmalar – 2 yoshgacha bo'lgan bolalar, homiladorlik, rozasea, vulgar husnbuzarlar, perioral dermatit, zahm, zamburug'li kasalliklar, virusli infeksiyalar. Okklyuzion bog'lam ostida foydalanilmaydi. Yuzning terisiga, teri burmalariga uzoq vaqt ishlatish maqsadga muvofiq emas. Mahalliy infeksiyon asoratlarning oldini olish uchun mikroblarga qarshi vositalar bilan birgalikda foydalanish tavsiya etiladi. 12 yoshgacha bo'lgan bolalarda preparat faqat shifokor nazorati ostida buyuriladi.

➤ Prednizolon – 0,5% li malham, kattalar va bolalarda kuniga ikki marta yupqa qatlam ko'rinishida uzluksiz davolash sxemasiga muvofiq 3 oydan, va uzlukli uslubda 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatda qo'llaniladi.

***Tavsiyalarning asoslanganlik darajasi S (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)***

***Izoh:*** Prednizoloni tayinlashga qarshi ko'rsatmalar – 1 yoshgacha bo'lgan yosh, homiladorlik va emizikli davr, rozasea, vulgar husnbuzarlar, perioral dermatit, sil kasalligining faol shakli, zahm, zamburug'li kasalliklar, virusli infeksiyalar. Ko'z sohasidagi teriga, shuningdek yara yuzalarida qo'llanilmaydi. Teri tashqarisiga preparatni 14 kundan ortiq ishlatmaslik kerak.

Vitiligo kasalligida mahalliy (topik) GKS patologik uchoq joylashishiga, ularning kengligiga, bemorning yoshiga, davolash maqsadiga va kasallik faolligiga mos holda boshqa ko‘rsatmalar hisobga olingan holda qo‘llaniladi. Mahalliy GKS faollik darajasi 2-ilovada keltirilgan.

- Vitiligo bilan kasallangan bemorlarga maxalliy terapiya uslubi sifatida kalsinevrin ingibitorlari tavsiya etiladi:

- Takrolimus – kattalarga 0,1% li malham, kuniga ikki marta yupqa qatlam ko‘rinishida 3 oy davomida, bolalar uchun 0,03% li malham kuniga ikki marta yupqa qatlam ko‘rinishida 3 oydan ko‘p bo‘lmagan muddatda qo‘llaniladi[47].

#### ***Tavsiyalarning asoslanganlik darajasi S (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)***

**Izoh:** Uzoq muddat foydalanilganda quyidagi tizimli nojo‘ya ta’sirlar bayon qilingan: grippga o‘xshash sindrom, bosh og‘riqlari, isitmalash, faringit, bronxial astma, yo‘tal. Hozirgi vaqtda kalsiverin ingibitorlaridan uzoq muddat foydalanganda terida yomon sifatli o‘smalarning ko‘payishi to‘g‘risida ishonchli ma‘lumotlar mavjud emas. Ammo, bemorlar preparatni qo‘llashning xavf va foydasi to‘g‘risida ma‘lumotga ega bo‘lishi kerak.

yoki

- Pimekrolimus – 1% li malham bolalarda kuniga ikki marta yupqa qatlam ko‘rinishida 3 oydan ko‘p bo‘lmagan muddat davomida qo‘llaniladi [47].

#### ***Tavsiyalarning asoslanganlik darajasi S (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)***

**Izoh:** Mahalliy kalsinevrin ingibitorlarini qo‘llash mahalliy glyukokortikosteroid preparatlar bilan solishtirganda xavfsizroq, sababi u terining atrofiyasini keltirib chiqarmaydi va vitiligo o‘choqlari yuzda joylashganda afzal sanaladi. Takrolimus malhamidan foydalanganda eritema, terining qichishishi va achishishi hissi kabi mahalliy nojo‘ya ta’sirlar eng ko‘p uchraydi. Odatda ular vaqtinchalik bo‘lib, davolanishning dastlabki kunlarida 15-20 daqiqa davom etadi. Meta-tahlil ma‘lumotlariga ko‘ra, kalsinevrin ingibitorlari bilan monoterapiya o‘tkazilganda, davolash medianasi davomiyligi 3 oy bo‘lganda bemorlarning 55,0%  $\geq 25\%$  repigmentasiyaga erishgan. Kalsinevrin ingibitorlari bilan mahalliy monoterapiya bolalarda eng samarali hisoblanadi: 66,4% bolalarda  $\geq 25\%$  repigmentasiyaga, 31,7% da esa  $\geq 75\%$  repigmentasiyaga erishilgan. Eng yaxshi natija yuz va bo‘yin terisida erishilgan, bu erda bemorlarning 73,1% da  $\geq 25\%$  repigmentasiya qayd etilgan [46].

Mahalliy kalsinevrin ingibitorlari bilan davolash kursi o‘rtacha 3 oyni tashkil qiladi, uzoq muddatli terapiyaning maqsadga muvofiqligi shifokor-dermatolog tomonidan belgilanadi. Bir nechta randomizirlangan, shu jumladan plasebo-nazorati ostida o‘tkazilgan tadqiqotlarda aniqlanganki, ham kattalarda, ham bolalarda vitiligoni davolash samaradorligi vitiligoning chegaralangan shakllarida, shu jumladan akrofasial vitiligoda 0,1% takrolimus malhamidan foydalanish orqali erishilgan [48].

Asosiy muolaja kursini tugatilishi bilanoq (yoki davolanish yakunlangandan keyin maksimal 2 hafta ichida) kasallikning qaytalanish xavfini kamaytirish maqsadida katta yoshdagi bemorlarda qo‘llovchi terapiya sifatida repigmentasiyalangan joylarda 0,1% li takrolimus malhamidan foydalanish samarali bo‘ladi, muolaja davomiyligi 24 haftadan ko‘p emas [49]. Vitiligoni 1% li pimekrolimus kremi bilan davolash samaradorligi ko‘rsatilgan [50,51].

**Izoh:** Kalsinevrinning mahalliy ingibitorlari, odatda kuniga ikki mahal qo‘llaniladi. Shuningdek, ularni mahalliy kortikosteroidlar bilan birgalikda, ularning har birini kuniga bir martadan birinchi oyda yoki ikki oy davomida qo‘llash mumkin.

- Ruksolitininib – mahalliy qo‘llashga mo‘ljallangan ruksolitininib Yanus-kinaza (JAK) ingibitori hisoblanib [krem Opzelura (ruksolitininib) mahalliy foydalanish uchun. AQSh FDA tomonidan

tasdiqlangan mahsulot ma'lumotlari; Uilmington, Delaver: Incyte Corporation; 2022 yil, iyul], 2022-yilning iyul oyida AQSh FDA va 2023-yil fevral oyida Evropa dori vositalari agentligi (EMA) tomonidan  $\geq 12$  yoshdagi bemorlarda tana yuzasi maydonining (BSA)  $\leq 10\%$  ni, shu jumladan yuzni ham shikastlaydigan, nosegmentar vitiligo ni davolash uchun tavsiya etilgan. Uni FDA tomonidan tasdiqlangan mezonlarga javob beradigan vitiligo bilan ogʻrigan har qanday bemorda davolashning birinchi yoki ikkinchi chizigʻi sifatida ishlatish mumkin.

**Izoh:** *Mahalliy qoʻllash uchun moʻljallangan ruksolitinib 1,5% li kremni kuniga ikki marta (haftalik maksimal dozasi 60 g) 52 haftagacha boʻlgan muddat davomida shikastlangan joylarga yupqa qatlam qilib surtiladi [52]. Qoʻllash yoʻriqnomasidagi ogohlantiruvchi maʼlumotlarda keltirilgan xavfsizlik muammolari tufayli samaradorlik va nojoʻya taʼsirlari borasida bemorlarni nazorat ostiga olish zarur. Agar olti oy ichida hech qanday ijobiy taʼsir qayd etilmasa, davolanishni toʻxtatish kerak. Ruksolitinib mahalliy qoʻllanganida qoʻlga kiritiladigan repigmentasiya uchrash tezligi hamda repigmentasiyagacha boʻlgan vaqt, chamasi, kortikosteroidlar va mahalliy kalsinevrin ingibitorlarini mahalliy qoʻllash bilan kuzatiladigan repigmentasiyaga oʻxshash, ammo bevosita randomizirlangan tadqiqotlarning hech birida ruksolitinib mahalliy kortikosteroidlar yoki mahalliy kalsinevrin ingibitorlari bilan taqqoslanmagan.*

• Vitiligo bilan ogʻrigan bemorlarga tashqi terapiya usuli sifatida antioksidantlarni qoʻllash **tavsiya etiladi:**

➤ “Vitileksin” – krem, uzluksiz davolash sxemasiga muvofiq kattalar va bolalarda terining shikastlangan joylariga yupqa qatlam koʻrinishida kuniga 2 marta 3 oydan koʻp boʻlmagan, va uzlukli uslubga mos ravishda 6 oydan koʻp boʻlmagan muddatda qoʻllaniladi.

➤ “EPTA VTLG” – emulsiya, 18 yoshdan kattalarga kuniga 2 maxal 3 oygacha muddat davomida qoʻllaniladi. NB-UVB nurlanishi bilan birgalikda qoʻllaganda yuqori samaraga erishiladi;

➤ “Vitasan” – krem, uzluksiz davolash sxemasiga mos ravishda kattalar va bolalarda terining shikastlangan joylariga yupqa qatlam koʻrinishida kuniga 2 mahal 3 oydan koʻp boʻlmagan, va uzlukli uslubga mos ravishda 6 oydan koʻp boʻlmagan muddatda qoʻllaniladi.

**Izoh:** *Terini ultrabinafsha nurlanishiga tayyorlash uchun kremdan kuz-qish mavsumida foydalanish tavsiya etiladi. Yoz faslida kremni vitiligo oʻchoqlariga ertalab, quyoshga chiqishdan oldin surtish maqsadga muvofiq. Bunda, quyoshda toblanish tartibiga rioya qilish kerak: 1-3-kunlari – 3 daqiqa; 4-6-kunlari – 6 daqiqa; 7-10-kunlari – 9 daqiqa; 11-13-kunlari 12 daqiqa; 14-20-kunlari – 15 daqiqa; 21-25-kunlari – 18 daqiqa; keyinchalik kuniga yigirma daqiqa quyoshda boʻlishga ruxsat beriladi.*

➤ “VITILSI” – gel, kattalar va bolalarda shikastlangan oʻchoqlarga yupqa qatlam koʻrinishida kuniga bir marta qoʻllaniladi, davomiyligi 2-3 oy.

**Izoh:** *“VITILSI” gelni kuniga bir marta terining shikastlangan joylariga yupqa qatlam koʻrinishida qoʻllash tavsiya etiladi.*

**Asosiy dori-vositalarning ro'yxati (100% foydalanish ehtimoli bilan): dalillar darajasini kiritish kerak:**

<b>Farmako-terapevtik guruh</b>	<b>Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi</b>	<b>Qo'llash tartibi</b>	<b>Dalillar darajasi</b>
Mikroelementlar	Mis preparatlari	m/o 1-2 ml dan kuniga 1 marta 3 hafta davomida ichishga 1 tabletkadan ovqat orasida. Davolashning davomiyligi - kamida 1 oy	B <a href="https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0022202X15498227">https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0022202X15498227</a>
Mikroelementlar	Tsink preparatlari	m/o 1 ml dan kuniga 1 marta 10 kun davomida  ichishga 2 oydan 6 oygacha bo'lgan yangi tug'ilgan chaqaloqlar uchun - 10-14 kun davomida kuniga bir marta 10 mg dozada  ichishga 6 oylikdan 5 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun - 10-14 kun davomida kuniga bir marta 20 mg dozada  Kattalar uchun kuniga 20 mg yoki shifokor ko'rsatmasi bo'yicha foydalaniladi.	B <a href="https://mediqlab.com/drugs/90406d3a-cf9a-4d73-aed6-d85636848cb0">https://mediqlab.com/drugs/90406d3a-cf9a-4d73-aed6-d85636848cb0</a>
Antioksidantlar	Alfa lipoik kislota	v/i tomchilatib yuborish kattalar uchun kuniga 600 mg dozada kamida 30 daqiqa davomida  ichishga kattalar va 14 yoshdan oshgan bolalar uchun - kuniga 1 marta ovqatdan oldin 1 kapsuladan. Davolashning davomiyligi - kamida 1 oy	B <a href="https://mediqlab.com/drugs/9572129b-5f56-4179-a69b-57ffa37dfe3a">https://mediqlab.com/drugs/9572129b-5f56-4179-a69b-57ffa37dfe3a</a>
Antioksidantlar	Alfa tokoferol atsetat	ichishga ovqatdan keyin kunlik 50-100 mg dozada (qo'llash muddati - 20-40 kun)	B <a href="https://www.lekhim.ua/ru/alfa-tokoferola-acetat-vitamin-e-dose-50-mgml-po-20-ml-no-1">https://www.lekhim.ua/ru/alfa-tokoferola-acetat-vitamin-e-dose-50-mgml-po-20-ml-no-1</a>

Antioksidantlar	Gliadin bilan himoyalangan superoksid dismutaza	Ichishga ovqatdan 30 daqiqa oldin birinchi 3 oyda 2 x 2 maxal, keyingi 3 oyda 1 x 1 maxal	B <a href="https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/jdv.17331">https://onlinelibrary.wiley.com/doi/10.1111/jdv.17331</a>
Antioksidantlar	Etilmetilhidroksipiridin suksinat	ichishga 0,25-0,5 g / kun 2-3 dozada; maksimal sutkalik doza - 0,6-0,8 g.  m/o yoki v/i yuborilganda (oqim yoki tomchilatib) bittalik doza 50-400 mg, maksimal sutkalik dozasi 1200 mg.	B <a href="https://mediqlab.com/drugs/1c923058-3229-49d9-87c7-4c944cdb719d">https://mediqlab.com/drugs/1c923058-3229-49d9-87c7-4c944cdb719d</a>
Antioksidantlar	Vitileksin - krem	kattalar va bolalarda kuniga 2 marta terining ta'sirlangan joylariga yupqa qilib surish, uzluksiz davolash rejimida 3 oydan ko'p bo'lmagan va intervalli rejimda 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatda qo'llash.	C <a href="https://www.vitilexine.fr/en/">https://www.vitilexine.fr/en/</a>
Antioksidantlar	“EPTA VTLG” – emulsiya	18 yoshdan kattalarga kuniga 2 maxal 3 oygacha muddat davomida qo'llaniladi.	C <a href="https://www.vitilexine.fr/en/">https://www.vitilexine.fr/en/</a>
Antioksidantlar	Vitasan – krem	kattalar va bolalarda kuniga 2 marta terining ta'sirlangan joylariga yupqa qilib surish, uzluksiz davolash rejimida 3 oydan ko'p bo'lmagan va intervalli rejimda 6 oydan ko'p bo'lmagan muddatda qo'llash.	C <a href="https://www.vitilexine.fr/en/">https://www.vitilexine.fr/en/</a>
Antioksidantlar	“VITILSI” – gel	kattalar va bolalarda kuniga 1 marta terining ta'sirlangan joylariga yupqa qilib surish.	C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/3351209/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/3351209/</a>
Gepatoprotektorlar	Ursodeoksixol kislotasi	Ichishga. Og'irligi 34 kg dan kam bo'lgan bolalar va kattalarga ursodeoksixol kislotasini suspenziya shaklida qo'llash tavsiya etiladi.	C <a href="https://mediqlab.com/drugs/f111157b-cb3f-4c34-b8b8-ae84794d0084">https://mediqlab.com/drugs/f111157b-cb3f-4c34-b8b8-ae84794d0084</a>

		Ursodeoksixol kislotasining tavsiya etilgan dozasi kuniga 10 mg / kg ni tashkil qiladi	
Gepatoprotektorlar	Essensial fosfolipidlar	<p>v/i sekin 1-2 ampula (5-10 ml) , eritmani bemorning qoni bilan 1: 1 nisbatda suyultiriladi.</p> <p>Agar preparatni suyultirish zarur bo'lsa, infuziya uchun faqat 5% yoki 10% dekstroz eritmasi ishlatiladi.</p> <p>Ichishga. 12 yoshdan oshgan va vazni 43 kg dan ortiq bo'lgan o'smirlar uchun, shuningdek, kattalar uchun ovqat paytida kuniga 3 marta 2 kapsuladan ichish tavsiya etiladi.</p>	<p>C</p> <p><a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/35088499/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/35088499/</a></p>
Gepatoprotektorlar	Antral	<p>Ichishga kuniga 3 marta ovqatdan keyin</p> <p>kattalar va 10 yoshdan oshgan bolalar uchun 200 mg dan</p> <p>4-10 yoshli bolalar uchun 100 mg dan</p>	<p>C</p> <p><a href="https://mediclab.com/drugs/57f976df-704c-46ee-b1c4-b7a71d5284a1">https://mediclab.com/drugs/57f976df-704c-46ee-b1c4-b7a71d5284a1</a></p>
Gepatoprotektorlar	Oksimatin	<p>m/o 600mg dan, kuniga 1 mahal</p> <p>v/i 600 mg 100-250 ml 5% glyukoza eritmasida yoki 0,9% natriy xlorid eritmasida suyultiriladi</p> <p>Kuniga bir mahal daqiqasiga 60 tomchi tezlikda tomir ichiga yuboriladi</p> <p>ichishga kuniga uch marta 2 kapsuladan (0,2 g oksimatin). Agar kerak bo'lsa, sutkalik dozani kuniga uch marta 3</p>	<p>C</p> <p><a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28450041/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28450041/</a></p>

		kapsulaga oshirish mumkin (0,3 g oksimatringa teng).	
Gepatoprotektorlar	Glutation	m/o, v/i infuzion sekin (2-3 minut) yoki 600mg kuniga yoki 1200 mg kun ora.  Ichishga. Kuniga 250 mg, asta-sekin til ostida eriydi.  Davolash kursi 2-3 oylik tsikllardan iborat bo'lib, ular yiliga 2-3 marta takrorlanishi mumkin.	C <a href="https://mediqlab.com/drugs/5dc77e7c-6dfb-4eab-9570-92bd53793d47">https://mediqlab.com/drugs/5dc77e7c-6dfb-4eab-9570-92bd53793d47</a>

**Eslatma:** Agar ma'lum bir guruhga kiruvchi zarur preparat shifoxonada qo'llash uchun tasdiqlangan ro'yxatda bo'lmasa yoki vaqtincha mavjud bo'lmasa, shifokor muqobil preparatni buyurishi mumkin (har xil ta'sir mexanizmiga ega, ammo bitta terapevtik maqsadga ega bo'lgan preparatlar). Dori vositasini tanlash klinik vaziyat, bemorning ahvoli va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Preparatlarning dozasi va miqdori shifokor tomonidan individual ravishda belgilanadi.

Terini namlash uchun preparatlar (emolentlar), tibbiy buyumlar, biologik faol qo'shimchalar, mikroelementlar, vitaminlar, antioksidantlar va kosmetologik vositalari, agar ular qarshi ko'rsatmalarga ega bo'lmasa va O'zbekiston Respublikasi hududida sertifikatlangan bo'lsa, dermatologik bemorlarni davolashda zaruratga ko'ra qo'llanilishi mumkin.

### Jadval -3

Qo'shimcha dori-vositalarning ro'yxati (foydalanish ehtimoli 100% dan kam): dalillar darajasini kiritish kerak:

<b>Farmako-terapevtik guruh</b>	<b>Dori-vositasining xalqaro patentlangan nomi</b>	<b>Qo'llash tartibi</b>	<b>Dalillar darajasi</b>
Glyukokortikosteroidlar	Deksametazon	Ichishga kuniga 2,5 dan 10 mg gacha, haftada ikki kun 3 oy davomida (bolalar uchun, yarmi ko'p)	B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/1312430/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/1312430/</a>
Glyukokortikosteroidlar	Prednizolon	v/i 1-2 mg/kg dozada haftada bir marta bir necha hafta davomida	B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/17642858/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/17642858/</a>

Glyukokortikosteroidlar	Metilprednizolon	3 kun ketma-ket 500 mg metilprednizoloni v/i yuborish	B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/10592410/#:~:text=After%20intravenous%20injection%20of%20500,parts%20of%20most%20vital%20lesions.">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/10592410/#:~:text=After%20intravenous%20injection%20of%20500,parts%20of%20most%20vital%20lesions.</a>
Glyukokortikosteroidlar	Flutikazon - krem 0,05%	kattalar va bolalarda kuniga bir marta yupqa qilib surish uzluksiz davolash rejimida 3coydan ko'p bo'lmagan muddatga, intervalli rejimda 6 oygacha	B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/2199063/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/2199063/</a>
Glyukokortikosteroidlar	Mometazon kremi, malham - 0,1%	kattalar va bolalarda kuniga bir marta yupqa qilib surish uzluksiz davolash rejimida 3coydan ko'p bo'lmagan muddatga, intervalli rejimda 6 oygacha	C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/20921663/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/20921663/</a>
Glyukokortikosteroidlar	Klobetasol - 0,05% krem, malham	Terining zararlangan soxalariga kuniga 1 mahal surish, intervalli sxemada 2-4 oy	B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/6721525/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/6721525/</a>
Glyukokortikosteroidlar	Betametazon - 0,05% malham, krem	kattalar va bolalarda kuniga bir marta yupqa qilib surish uzluksiz davolash rejimida 3coydan ko'p bo'lmagan muddatga, intervalli rejimda 6 oygacha	C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/22272490/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/22272490/</a>
Glyukokortikosteroidlar	Metilprednizolon aseponat - 0,1% malham, krem	kattalar va bolalarda kuniga bir marta yupqa qilib surish uzluksiz davolash rejimida 3coydan ko'p bo'lmagan muddatga, intervalli rejimda 6 oygacha	C <a href="https://mediqlab.com/drugs/6dee77f4-0397-4fdc-b07f-42a87ad56b58">https://mediqlab.com/drugs/6dee77f4-0397-4fdc-b07f-42a87ad56b58</a>
Glyukokortikosteroidlar	Fluotsinolon asetonid - 0,025% malham	kattalar va bolalarda kuniga bir marta yupqa qilib surish uzluksiz davolash rejimida 3coydan ko'p bo'lmagan muddatga, intervalli rejimda 6 oygacha	C <a href="https://mediqlab.com/drugs/75a84d9e-a8ca-48d9-86e6-b2734c702de9">https://mediqlab.com/drugs/75a84d9e-a8ca-48d9-86e6-b2734c702de9</a>
Glyukokortikosteroidlar	Triamsinolon asetonid - 0,1% malham, krem	kattalar va bolalarda kuniga 2 marta yupqa qilib surish	C

		uzluksiz davolash rejimida 3coydan ko'p bo'lmagan muddatga, intervalli rejimda 6 oygacha	<a href="https://dermnetnz.org/topics/topical-steroid">https://dermnetnz.org/topics/topical-steroid</a>
Glyukokortikosteroidlar	Gidrokortizon asetat - 1% malham, krem	kattalar va bolalarda kuniga 2 marta yupqa qilib surish uzluksiz davolash rejimida 3 oydan ko'p bo'lmagan muddatga, intervalli rejimda 6 oygacha	C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/773413/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/773413/</a>
Glyukokortikosteroidlar	Prednizolon - 0,5% malham	kattalar va bolalarda kuniga 2 marta yupqa qilib surish uzluksiz davolash rejimida 3coydan ko'p bo'lmagan muddatga, intervalli rejimda 6 oygacha	C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/773413/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/773413/</a>
Kaltsinevrin ingibitorlari	Tsiklosporin	Tsiklosporinning boshlang'ich dozasi kuniga 2,5 dan 3 mg / kg tana vazniga 2 qabulga bo'lingan. Og'ir holatlarda, agar kerak bo'lsa, preparatning dozasi kuniga tana vaznining kg boshiga maksimal 5 mg gacha oshirilishi mumkin. Agar ijobiy natijaga erishilsa, dozani to'liq to'xtatilgunga qadar asta-sekin kamaytirish kerak.	B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34151493/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/34151493/</a>
Antimetabolit	Metotreksat	t/o, m/o yoki ichishga Kattalar uchun metotreksat haftasiga 10 dan 30 mg gacha bo'lgan dozada buyuriladi. bolalarda - 0,2-0,7 mg / kg / hafta	C <a href="https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3824946/#:~:text=Methotrexate%20has%20been%20reported%20to,the%20disease%20process%20under%20control.">https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3824946/#:~:text=Methotrexate%20has%20been%20reported%20to,the%20disease%20process%20under%20control.</a>
Immunosupressantlar	Mikofenolat mofetil	Ichishga ular ko'pincha kuniga ikki marta 500-750 mg dan boshlanadi, keyin dozani kuniga ikki marta 1,0-1,5 g gacha oshiradi.	C <a href="https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC5424659/">https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC5424659/</a>
Yanus kinaza ingibitorlari	Baritsitinib	2-4 mg/sut 12 haftadan (monoterapiya) 36 haftagacha (kombinatsiyalangan rejim)	B <a href="https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/15593258">https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/15593258</a>

			<a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/221105370?url_ver=Z39.88-2003&amp;rfr_id=ori:rid:crossref.org&amp;rfr_dat=cr_pub%20%20pubmed">221105370?url_ver=Z39.88-2003&amp;rfr_id=ori:rid:crossref.org&amp;rfr_dat=cr_pub%20%20pubmed</a>
Kalsinevrin ingibitorlari	Pimekrolimus - malham	tashqi tomondan kuniga 2 marta yupqa qatlam shaklida	A <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/17377388/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/17377388/</a>
Kalsinevrin ingibitorlari	Takrolimus - malham	kattalar uchun 0,1% malham tashqi tomondan kuniga 2 marta yupqa qatlamda 3 oy davomida, bolalar uchun 0,03% malham kuniga 2 marta yupqa qatlamda 3 oydan ko'p bo'lmagan muddatga	A <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/17659000/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/17659000/</a>
Yanus kinaza ingibitorlari	Ruxolitinib - krem	Kuniga ikki marta zararlangan joylarga yupqa qilib surtiladi	A <a href="https://www.opzelura.com/vitiligo/">https://www.opzelura.com/vitiligo/</a>
Vitamin D analoglari	Kaltsipotriol	Kuniga ikki marta zararlangan joylarga surtiladi	B <a href="https://www.vidal.ru/drugs/molecule/152">https://www.vidal.ru/drugs/molecule/152</a>
Vitamin D analoglari	Takaltsitol	Kuniga ikki marta zararlangan joylarga surtiladi	B <a href="https://vrfoundation.org/treatment_guidelines">https://vrfoundation.org/treatment_guidelines</a>
Furokumarinlar	Izopimpinelin	uzoq to'lqinli ultrabinafsha spektri (to'lqin uzunligi 320-400 nm) bilan nurlanishdan 15-30 daqiqa oldin zararlangan joylarga bir marta tashqi tomondan qo'llash, aplikatsion shaklida.	B <a href="https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0367326X21002690#:~:text=Isopimpinellin%20shown%20photosensitizing%20action%20and,its%20anti%20vitiligo%20mechanism%20currently.">https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0367326X21002690#:~:text=Isopimpinellin%20shown%20photosensitizing%20action%20and,its%20anti%20vitiligo%20mechanism%20currently.</a>
Фурукумарины	Bergapten	uzoq to'lqinli ultrabinafsha spektri (to'lqin uzunligi 320-400 nm) bilan nurlanishdan 15-30 daqiqa oldin zararlangan joylarga bir	B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/20067712/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/20067712/</a>

		marta tashqi tomondan qo'llash shaklida.	
Фурокумарины	Ksantotoksin	uzoq to'lqinli ultrabinafsha spektri (to'lqin uzunligi 320-400 nm) bilan nurlanishdan 15-30 daqiqa oldin zararlangan joylarga bir marta tashqi tomondan qo'llash shaklida.	B <a href="https://cyberleninka.ru/article/n/vitiligo-sovremennye-predstavleniya-ob-etilogii-patogeneze-i-podhody-k-lecheniyu-zabolevaniya/viewer">https://cyberleninka.ru/article/n/vitiligo-sovremennye-predstavleniya-ob-etilogii-patogeneze-i-podhody-k-lecheniyu-zabolevaniya/viewer</a>
Фурокумарины	Metoxsalen 7,5 mg malham	Vitiligoning aniq belgilangan joylariga tegishli manba yoki quyosh nuridan uzoq to'lqinli ultrabinafsha spektri (to'lqin uzunligi 320-400 nm) bilan nurlanishdan 30-60 daqiqa oldin qo'llaniladi.	B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/1939861/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/1939861/</a>
Камуфлирующая косметика	Dihidroksiatseton	Aplikator yordamida terining vitiligo bilan kasallangan joylariga Viticolor gelini qo'llash.	C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/18377610/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/18377610/</a>
Gidroxinonlar	Gidroxinon	Kremning yupqa qatlami yotishdan 30 daqiqa oldin tananing tuzatishni talab qiladigan joylariga 2 oydan ko'p bo'lmagan muddatga surtiladi.	A <a href="https://www.jaad.org/article/S0190-9622(11)01980-3/abstract">https://www.jaad.org/article/S0190-9622(11)01980-3/abstract</a>
Vitaminlar	Tsiyanokobalamin	m/o yoki v/i kuniga 1 mg 1-2 hafta davomida, qo'llab quvatlovchi doza 1-2 mg - haftada 1 martadan oyiga 1 marta	C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/9394983/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/9394983/</a>
Vitaminlar	Riboflavin	Ichish: kattalar - kuniga 5-10 mg; bolalar - kuniga 1 marta 2-5 mg. Davolashning davomiyligi - 1-1,5 oy.  m/o: 1 ml 1% eritma (0,1 g) kuniga 1 marta 10-15 kun (bolalar - 3-5 kun), keyin haftasiga 2-3 marta; davolash kursi - 15-20 in'ektsiya.	C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/37063401/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/37063401/</a>
Vitaminlar	Foliy kislotasi	ovqatdan keyin ichish	C

		<p>kattalar: 1-2 mg (1-2 tabletka) kuniga 1-3 marta. Maksimal sutkalik doza - 5 mg (5 tabletka)</p> <p>3 yoshdan oshgan bolalar: 1 mg (1 tabletka) kuniga 1-2 marta maksimal sutkalik doza: 2 mg (2 tabletka).</p> <p>Davolash kursi 20-30 kun</p>	<p><a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/9394983/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/9394983/</a></p>
Vitaminlar	Tiamin	<p>m/o (chuqur) Preparatni kichik dozalardan (5% li eritmaning 0,5 ml dan ko'p bo'lmagan) qo'llashni boshlash tavsiya etiladi va faqat yaxshi qabul qilganda, yuqori dozalarga o'ting. Kattalar kuniga bir marta, kuniga bir marta 25-50 mg tiamin gidroxlorid (0,5-1 ml 5% eritma) buyuriladi; bolalar - kuniga 1 marta 12,5 mg (0,25 ml 5% eritma). Davolash kursi - 10-30 in'ektsiya.</p>	<p>C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/14849254/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/14849254/</a></p>
Vitaminlar	Askorbin kislotasi	<p>Ichishga, m/o, v/I Tanqislik holatlarining oldini olish uchun - kuniga 25-75 mg, davolash uchun kuniga 250 mg yoki undan ko'p bo'lingan dozalarda.</p>	<p>C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31148154/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/31148154/</a></p>
Vitaminlar	Xolekaltsiferol	<p>Ichishga, m/o 500-200.000 MB Kamchilik darajasini hisobga olgan holda</p>	<p>B <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24177606/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/24177606/</a></p>
Antidepressantlar	Doksepin	<p>Ichishga. O'rtacha og'ir depressiya va / yoki tashvish uchun boshlang'ich doza kuniga 75 mg ni tashkil qiladi. Kelajakda samarali doz individual ravishda tanlanadi, odatda kuniga 75-150 mg. Doza asta-sekin oshiriladi. Og'ir depressiya va / yoki tashvish uchun samarali doz kuniga 300 mg ga yetishi mumkin. Minimal darajada og'ir buzilishlari bo'lgan bemorlarda kuniga</p>	<p>C <a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32347140/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/32347140/</a></p>

		<p>25-50 mg pastroq dozalar samarali bo'lishi mumkin. Qo'llash chastotasi kuniga 1-2 marta (kun davomida bitta dozada doksepinning dozasi 150 mg dan oshmasligi kerak).</p> <p>Uyqu buzilishi uchun kunlik dozaning katta qismi kechqurun olinadi.</p>	
Antidepressantlar	Mirtazapin	<p>Ichishga kuniga 15-45 mg, yotishdan oldin kuniga 1 marta. Doza asta-sekin kuniga 30-45 mg gacha oshiriladi. Antidepressant ta'siri asta-sekin, odatda davolanish boshlanganidan 2-3 hafta o'tgach rivojlanadi, ammo davolanishni yana 4-6 oy davom ettirish kerak. Agar davolanishdan keyin 6-8 hafta ichida terapevtik ta'sir kuzatilmasa, davolanishni to'xtatish kerak.</p> <p>Mirtazapin asta-sekin olib tashlanadi.</p>	<p>C</p> <p><a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28512664/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/28512664/</a></p>
Antidepressantlar	Paroksetin	<p>Ichishga kuniga 1 marta - ertalab ovqat paytida. Tabletkani chaynamasdan yutish kerak</p> <p>Tavsiya etilgan sutkalik doza 20 mg ni tashkil qiladi, dozani davolashning dastlabki 3-4 xaftasi davomida ehtiyotkorlik bilan individual tanlash kerak, keyin esa klinik ko'rinishlarga qarab tuzatish kerak. 20 mg dozaga etarli darajada javob bermagan ba'zi bemorlarni davolash uchun dozani oshirish kerak bo'lishi mumkin. Bu davolanishning klinik samaradorligiga qarab, dozani 10 mg (maksimal 50 mg / kun) ga oshirib, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerak.</p>	<p>C</p> <p><a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/8252846/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/8252846/</a></p>
Анксиолитики	Gidroksizin	<p>Ichishga. 12,5-50 mg / kun</p>	<p>B</p>

		<p>Maksimal yagona doz 200 mg dan oshmasligi kerak, maksimal sutkalik doza 300 mg dan oshmasligi kerak. Keksa bemorlarda boshlang'ich dozani 2 baravar kamaytirish kerak. O'rtacha va og'ir buyrak etishmovchiligi, shuningdek, jigar etishmovchiligi bo'lgan bemorlarda dozani kamaytirish talab qilinadi.</p>	<p><a href="https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/14445517/">https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/14445517/</a></p>
--	--	---	--

**Eslatma:** Agar ma'lum bir guruhga kiruvchi zarur preparat shifoxonada qo'llash uchun tasdiqlangan ro'yxatda bo'lmasa yoki vaqtincha mavjud bo'lmasa, shifokor muqobil preparatni buyurishi mumkin (har xil ta'sir mexanizmiga ega, ammo bitta terapevtik maqsadga ega bo'lgan preparatlar). Dori vositasini tanlash klinik vaziyat, bemorning ahvoli va mavjud imkoniyatlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi. Preparatlarning dozasi va miqdori shifokor tomonidan individual ravishda belgilanadi.

Terini namlash uchun preparatlar (emolentlar), tibbiy buyumlar, biologik faol qo'shimchalar, mikroelementlar, vitaminlar, antioksidantlar va kosmetologik vositalari, agar ular qarshi ko'rsatmalarga ega bo'lmasa va O'zbekiston Respublikasi hududida sertifikatlangan bo'lsa, dermatologik bemorlarni davolashda zaruratga ko'ra qo'llanilishi mumkin.

\*Gepatoprotektiv ta'sir ko'rsatadigan dorilar

Laboratoriya va instrumental tadqiqotlarda simptomlar yoki o'zgarishlar mavjud bo'lsa, gepatoprotektiv xususiyatlarga ega preparatlar buyuriladi, bu xususiyatlarga ega bo'lgan preparatni tanlash shifokor tomonidan belgilanadi;

### **Fototerapiya**

• Terining shikastlanishi bilan kechadigan vitiligoga chalingan bemorlarda pigment hosil bo'lishini rag'batlantirish uchun tanlov usuli sifatida **tavsiya etiladi:**

**tor kenglikdagi o'rta to'lqinli ultrabinafsha terapiya** – kattalar va bolalar uchun – NB-UVB-311 nm qisqa kenglikli o'rta to'lqinli ultrabinafsha terapiyasi [46,53].

Nurlantirish 0,1-0,25 Dj/sm<sup>2</sup> dozadan boshlanadi, muolajalar haftada 2-3 marta (ketma-ket 2 kun qo'llanilmaydi) tartibda amalga oshiriladi. Keyingi har bir muolajada bir martalik doza qichishish yoki og'riqli sezgilar bilan birga kechamaydigan kuchsiz yoki o'rtamiyona ifodalangan eritema paydo bo'lguncha 5-20% ga oshirib boriladi. Keyinchalik eritema paydo bo'lganda bir martalik doza doimiy qilib qoldiriladi, agar eritema vujudga kelmasa, doza 5-20% ga oshiriladi.

**Tavsiyalarning asoslanganlik darajasi A (dalillarning ishonchlik darajasi – 1)**

**Izoh:** Tor kenglikdagi o'rta to'lqinli ultrabinafsha terapiya vitiligo uchun eng samarali davolash usullaridan biridir. Muolajalar zararlanish o'chog'ining maydoni va joylashishiga qarab umumiy yoki mahalliy nurlanish shaklida amalga oshiriladi. Meta-tahlil ma'lumotlariga ko'ra, Nb-UVB-311nm terapiyasi uchun terining eng sezgir joylari yuz va bo'yin terisi bo'lib chiqdi, ularda 44,2% holatlarda ifodalangan repigmentasiyaga erishildi. Fototerapiyaga javobni baholash uchun 6 oydan kam bo'lmagan vaqt kerak bo'ladi. Nb-UVB-311nm terapiyasining umumiy samaradorligi PUVA terapiyadan yuqori. Nb-UVB-311nm terapiyasi PUVA terapiyasiga taqqoslanganda yuqori samaradorligi va xavfsizligi sababli afzal sanaladi.

Terisi 2-fototipga mansub bo'lgan kattalarda Nb-UVB-311 terapiyasining tavsiya etilgan umumiy davomiyliigi 100 muolajadan ortiq emas. Terisi 3-4-fototipga mansub bo'lgan bemorlarda muolajalarning

umumiy soni 150-200 taga oshirish mumkin. Bolalarda muolajalarni boshlashning minimal yoshi 7-10 yoshni tashkil qiladi, bolalarda fototerapiyadan foydalanishning maqsadga muvofiqligi bir qator omillar bilan belgilanishi kerak: yoshi, teri fototipi, quyoshdan kuyishga oid anamnez ma'lumotlar, irsiyat, tarqalganlik, oldin o'tkazilgan tashqi terapiya amalga oshirilganligi yoki bajarilmaganligi, xavf va foyda nisbatlarini baholash. T. Fispatrik bo'yicha, terisi 1-fototipga mansub bo'lgan bolalar va kattalarda fototerapiya odatda qo'llanilmaydi, bunga sabab – terapiyani ko'tara olmaslik va teridagi minimal klinik ko'rinishlar. Bolalarda, uzoq muddatli xavfsizlik ma'lumotlari yo'qligi sababli, terapiya davomiyligi kattalarga qaraganda kam bo'lishi kerak va dermatolog tomonidan individual tarzda belgilanadi.

Nb-UVB-311nm terapiyani amalga oshirishdan oldin qarshi ko'rsatmalarni istisno qilish uchun laborator tekshiruvlarni (qonning umumiy klinik tahlili, qonning biokimyoviy tahlili, siydikning umumiy tahlili) bajarish, shifokor-terapevt, shifokor-endokrinolog, akusher-ginekolog (ayollarda) maslahatlari tavsiya etiladi.

Fototerapiyaga qarshi ko'rsatmalar: ultrabinafsha nurlanishni ko'tarolmaslik, yorug'likka yuqori sezuvchanlik bilan kechadigan kasalliklar (pigmentli kseroderma, albinizm, tizimli qizil bo'richa, Gorlin sindromi, dermatomioziti, trixotiodistrofiya, Blyum sindromi, irsiy displastik nevus sindromi, Kokeyn sindromi, porfiriyalar), hozirgi vaqtda yoki o'tmishda melanoma yoki teri saratoni bo'lganligi, terining saraton oldi shikastlanishlari, fotosensibilizasiya qiluvchi vositalar qo'llanilishi, quyosh nurlaridan kuchli kuyish, 7 yoshgacha bo'lgan yosh, homiladorlik, laktasiya, fizioterapiya uslublari tavsiya etilmaydigan holatlar va kasalliklar [54,55]. NB-UVB-311 terapiyasining eng erta nojo'ya samarasi muolajadan 12-24 soat o'tgach eritema rivojlanishi hisoblanadi. Terining achishishi va qichishi bilan kechadigan simptomatik eritemaning mavjudligi klinik ko'rinishlar regressiyasi sodir bo'lganicha davolanishni to'xtatishni talab qiladi. Odatda eritema 24-72 soatdan keyin qaytadi.

**Izoh:** Kattalarda xavfsizlik: 20 va undan katta yoshdagi vitiligoga chalingan, NB-UVB-311 terapiyasi bilan davolangan 60 321 bemorda teri saratoni va terining saraton oldi kasalliklari rivojlanish xavfini tahlil qilish bo'yicha koreyaning populyasion retrospektiv kogort tadqiqotiga ko'ra, uzoq muddatli NB-UVB-311 terapiyasi vitiligo bilan kasallangan bemorlarda teri saratoni rivojlanish xavfining oshishi bilan bog'liq emas. Shunga qaramasdan, fotokarsinogenez nuqtai nazaridan uzoq muddatli xavf masalalari qo'shimcha o'rganishni talab qiladi [56].

• Generallashgan teri zaralanishi bilan kechadigan vitiligoga chalingan katta yoshdagi bemorlarga pigment hosil bo'lishini rag'batlantirish uchun quyidagilar **tavsiya etiladi:**

**PUVA** – umumiy/mahalliy fotosensibilizatorlarni ichki qo'llanilishi bilan fotokimyoterapiyani amalga oshirish [32,57].

Uzun to'lqinli ultrabinafsha nur bilan (to'lqin uzunligi 320-400 nm) nurlantirishdan oldin tana vazniga nisbatan furokumarin 0,8 mg/kg peroral tayinlanadi.

Nurlantirish minimal fototoksik miqdorning 25-50% ni yoki terining fototipiga qarab 0,1-0,5 Dj/sm<sup>2</sup> ni tashkil qiladigan UFA miqdordan boshlanadi. Muolajalar bir haftada 2-3 marta amalga oshiriladi (lekin ketma-ket 2 kun emas). Eritema bo'lmaganda bitta nurlanish miqdor har ikkinchi yoki uchinchi muolajada 10-20% yoki 0,2-0,5 Dj/sm<sup>2</sup> ga oshiriladi. Sust ifodalangan eritema paydo bo'lganda, miqdor doimiy tarzda qoldiriladi. Bir martalik nurlanish miqdorning maksimal qiymati 5 Dj/sm<sup>2</sup>.

**Tavsiyalarning asoslanganlik darajasi A (dalillarning ishonchlilik darajasi – 1)**

yoki

• Teri shikastlanishi cheklangan (yuzdan tashqari) vitiligo bilan kasallangan katta yoshli bemorlarga pigment hosil bo'lishini rag'batlantirish uchun quyidagilar **tavsiya etiladi:**

**PUVA** – fotosensibilizatorlarning tashqi qo'llanilishi bilan mahalliy fotokimyoterapiya

➤ Izopimpinellin/bergapten/ksantotoksinning 0,3% li spirtli eritmasi uzun to'lqinli (to'lqin uzunligi 320-400 nm) ultrabinafsha spektri bilan nurlanishdan 15-30 daqiqa oldin zararlanish o'choqlariga applikasiya shaklida bir marta qo'llaniladi.

Fotosensibilizatorni tashqi qo'llash bilan birga PUVA-terapiyasi muolajalari 0,25–0,5 Dj/sm<sup>2</sup> dozadan boshlanadi. Keyingi bir martalik dozalar har bir muolajadan yoki 1-2 muolajadan so'ng teri fototipiga mos ravishda maksimal doza 3-6 Dj/sm<sup>2</sup> ga etguncha 0,25–0,5 Dj/sm<sup>2</sup> ga oshirilib boriladi. Muolajalar bir haftada 2-4 marta amalga oshiriladi, davolash kursi 20-60 muolajani tashkil qiladi.

➤ Metoksalen, 7,5 mg malham – vitiligoning aniq belgilangan joylariga mos manbadan hosil bo'lgan uzun to'lqinli ultrabinafsha spektri (to'lqin uzunligi 320-400 nm) yoki quyosh nurlari bilan nurlantirishdan 30-60 daqiqa oldin qo'llaniladi. Dastlabki ta'sir konservativ bo'lishi kerak va taxmin qilingan minimal eritema dozasi yarmidan oshmasligi kerak. Davolash intervallari qizarish natijasiga qarab takrorlanishi kerak va natijalarga qarab haftada bir marta yoki kamroq tavsiya etiladi. Pigmentasiya bir necha haftadan so'ng boshlanishi mumkin, ammo sezilarli repigmentasiya 6 oydan 9 oygacha davolanishni talab etishi mumkin.

#### **Tavsiyalarning asoslanganlik darajasi A (dalillarning ishonchlik darajasi – I)**

**Izoh:** PUVA terapiyasi 1-3 oylik tanaffus bilan 15-25 muolajadan iborat takroriy kurslar yoki 100 muolajani o'z ichiga olgan bitta uzoq kurs shaklida amalga oshiriladi. Shuni hisobga olish kerakki, ushbu davolash usuli uni qo'llashni cheklaydigan bir qator nojo'ya ta'sirlarga ega: ko'zlar va terining fotosensitizatsiyasi, teri saratoni rivojlanish xavfi. Ko'pincha PUVA terapiyasi ifodalangan giperpigmentasiyaga va shikastlangan, repigmentasiyalangan va sog'lom ko'rinishga ega teri o'rtasida keskin kontrast hosil bo'lishiga olib keladi.

Qarshi ko'rsatmalarni oldini olish uchun fotosensibilizatorni peroral qabul qilish bilan birgalikda PUVA terapiyasini amalga oshirishdan oldin laborator tekshiruvlarini (qonning umumiy kengaytirilgan klinik tahlili, qonning umumterapevtik biokimyoviy tahlili, umumiy siydik tahlili), terapevt, endokrinolog, akusher-ginekolog (ayollarda), oftalmolog maslahatlari tavsiya etiladi. Fotosensibilizatorni tashqi mahalliy tarzda qo'llash orqali PUVA terapiyasini o'tkazishda – endokrinolog, terapevt, akusher-ginekolog (ayollarda) maslahatlari tavsiya etiladi. Ko'rsatmalar bo'yicha boshqa mutaxassislarning maslahatlari ham tavsiya qilinishi mumkin.

PUVA terapiyasiga qarshi ko'rsatmalar bo'lib ultrabinafsha nurlanishni ko'tarolmaslik, yorug'likka yuqori sezuvchanlik bilan kechadigan kasalliklar (pigmentli kseroderma, albinizm, tizimli qizil bo'richa, Gorlin sindromi, dermatomiozit, trixotiodistrofiya, Blyum sindromi, irsiy displastik nevus sindromi, Kokeyn sindromi, porfiriya), hozirgi vaqtdagi melanoma yoki teri saratoni mavjudligi, terining saraton oldi shikastlanishlari, fotosensibilizatsiyalovchi vositalarni qo'llash, quyosh nurlaridan kuchli kuyish, 18 yoshgacha bo'lgan bolalar, homiladorlik, laktasiya, fizioterapiya usullari qarshi ko'rsatilgan holatlar va kasalliklar hisoblanadi [58].

PUVA terapiyasining asosiy erta nojo'ya ta'sirlariga fototoksik reaksiyalar, qichishish va terining giperpigmentasiyasi kiradi. PUVA terapiyasi jarayonida fototoksik reaksiyalar (eritema, shish, pufakchalar, terining qichishi) bemorlarning taxminan 10% da rivojlanadi. Eritemaning jadalligi fotosensibilizator va ultrabinafsha nurlanish dozasi, terining individual sezuvchanligiga bog'liq. U nurlanishdan 24-36 soat o'tgach paydo bo'ladi, 72-96 soatdan keyin maksimal ifodalanganlik darajasiga etadi va 7 kundan ortiq saqlanishi mumkin. Fototoksik reaksiyalarning rivojlanishiga hissa qo'shadigan omillar qatoriga potensial fotosensibilizatsiya qiluvchi vositalar, ya'ni dori-darmonlar (antibiotiklar, antidepressantlar, nosteroid yallig'lanishga qarshi dorilar, sulfanilmochevina hosilalari), bergamot moyi, atirlar, yupanchiqlar va boshqalarni o'z ichiga olgan kosmetika, ba'zi oziq-ovqat mahsulotlari (petrushka, anjir, tarvuz va boshqalar)dan bir vaqtning o'zida foydalanish kiradi. Bundan tashqari, PUVA terapiyasida fotosensibilizatsiya qiluvchi dorilar yuzaga keltiradigan nojo'ya ta'sirlar ham paydo bo'lishi mumkin. Tabletkada shaklidagi fotosensibilizatorlardan foydalanish bilan bog'liq nojo'ya ta'sirlar o'z ichiga ko'ngil aynishni, epigastral sohada noqulaylikni, bosh aylanishini, bosh og'rig'ini, gipotenzivni, uyqu buzilishini, depressivni oladi. Fotosensibilizatorlarning spirtli shakllardan foydalanganda kontakt dermatit, allergik kontakt dermatit rivojlanishi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan hodisalar rivojlanganda preparatlar bekor qilinadi. Psoralen fotosensibilizatorlar peroral qabul qilinganda qon oqimi bilan ko'z gavhariga kirib, UBA ta'siri ostida gavhar oqsillari bilan bog'lanishi mumkin, shu sababli shox parda, gavharga zarar etkazmaslik uchun PUVA terapiyasini o'tkazishda muolaja vaqtida va kun davomida

koʻzdarni fotohimoyalovchi koʻzoynaklar bilan himoya qilish kerak. Adabiyotlarda *PUVA* terapiyasining boshqa bir qator salbiy reaksiyalari tasvirlangan, ular amaliyotda nisbatan kam uchraydi. Masalan, ayrim bemorlarda onixolizis, tirnoq osti qontalashlar, follikulit, terining ogʻriqliligi, melanonixiya, Kyobner fenomeni, seboreyali dermatit, kontakt dermatit, aktinik dermatit, polimorf fotodermatoz, anafilaksiya, kon'yunktivit, oddiy herpes, keratit kuzatilishi mumkin. *PUVA* terapiyasining uzoq muddatdagi nojoʻya taʼsirlariga uzoq muddat qoʻllanilishi bois kanserogen xavf talluqli.

- Vitiligo bilan kasallangan bemorlarda fototerapiyaning boshqa usullarini qoʻllash imkoni boʻlmaganda yoki ularga qarshi koʻrsatmalar boʻlganda quyidagilar **tavsiya etiladi**:

**Selektiv fototerapiya** (keng toʻlqinli ultrabinafsha terapiyasi) kattalar va 7 yoshdan katta bolalar uchun umumiy/mahalliy [59,60].

Nurlantirish  $0,01-0,025 \text{ Dj/sm}^2$  ga teng dozadan yoki minimal eritema dozasining 25-30% dan boshlanadi. Kelgusi bir martalik dozalar har 2-4 muolajada  $1/3$  dan  $1/4$  gacha, kuchsiz yoki engil qichishish yoki ogʻriqli sezgilar bilan kechmaydigan engil darajadagi aniq eritema paydo boʻlguncha oshirib boriladi, shundan soʻng doza doimiy ushlanadi. Muolajalar haftada 2-3 marta tartibda amalga oshiriladi.

**Tavsiyalarning asoslanganlik darajasi S (dalillarning ishonchlilik darajasi – 5)**

**Izoh:** Terining fototipiga qarab bitta kurs uchun 20 dan 100 gacha yoki undan koʻp muolajalar buyuriladi.

**PUVA sol** – mahalliy tashqi fotosensibilizatorlar va quyosh nurlaridan foydalangan holda oʻtkaziladigan terapiya bir qator kamchiliklari: nurlanish kunning turli vaqtlarida oʻzgarib turishi, ekspozitsiya vaqtini aniq nazorat qilish mumkin emasligi, terining sogʻ joylarini himoya qilish qiyinligi va boshqalar sababli tavsiya etilmaydi.

UBB terapiyasini oʻtkazishdan oldin nojoʻya taʼsirlarni istisno qilish maqsadida laborator tekshiruvlarni (qonning umumiy klinik tahlili, biokimyoviy qon tahlili, umumiy siydik tahlili) oʻtkazish, terapevt, endokrinolog, akusher-ginekolog (ayollarda) maslahatlari tavsiya etiladi. Koʻrsatmalarga binoan boshqa mutaxassislarining maslahati tavsiya qilinishi mumkin.

